

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLARNI XAL QILISHNING DOLZARB MASALALARI

Abdumutalova Gulruh Shuhratjon qizi

o'qituvchi, University of Business and Science,

O'zbekiston, Namangan

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklari faoliyatini tahlil qilish va baholash bilan bog'liq muammolarni hal qilishning muhim masalalari muhokama qilinadi. Maqolada muallif ushbu sohadagi qonunchilik va amaliyot bilan bog'liq ko'plab muammolarni yoritishga harakat qildi.

Kalit so'zlar: bank, tijorat banklari, biznes model, korporativ mijozlar, innovatsiya, moliya tashkilotlari, likvidlilik, strategiya

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida tijorat banklarining ham alohida o'rni bor. Shu nuqtai nazardan, bu sohadagi faoliyatni rivojlantirish iqtisodiy o'sish va rivojlanishga turtki bo'ladi. Tijorat banklarini faoliyatini tahlil qilish baholash ularning bir maromda, qonuniy faoliyatni tahsil etishlariga ko'maklashish jarayonida juda muhim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yildagi 15 maydagi "2020 - 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son farmonida "kapitalning yetariligi va likvidlik ko'rsatkichi talablariga qat'iy rioya etilishini, shu jumladan mavjud talablarni qayta ko'rib chiqish va ularni Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining standartlariga muvofiqlashtirish orqali ta'minlash"ga doir chora-tadbirlarda "banklar biznes-modellarining korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilganligi, nobank moliya tashkilotlari, innovatsiyalar va axborot tizimlarining sust rivojlanganligi sababli"ni kengaytirish, pandemiya sharoitida tijorat banklarini qo'llab quvvatlashda "bank va uning atrofidagi muhitning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan va aniq ifodalangan likvidlilikni boshqarish siyosatining mavjudligi"ni ta'minlash orqali amalga oshirilmoqda.

Shu bois, tijorat bankining likvidligi uning ishonchliligi va barqarorligini belgilaydigan bank faoliyatining asosiy sifat ko'rsatkichlaridan biri sifatida kredit va bank sektorining iqtisodiyotdagi tarkibiy qismi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Fikrimizcha, tijorat bankining likvidlilikni boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda banklarda likvidlilik riskining yuzaga kelish omillariga alohida e'tibor qaratish zarur. Chunonchi, moliya bozoriga likvidlilikni taqdim etish bo'yicha biznes qarorlari, bankning mavqeiga putur yetishi, mahsulotlari va xizmatlari bozorida bank pozitsiyaning yomonlashuvi, shuningdek, bevosita bankka bog'liq bo'lmagan turli tashqi omillar likvidlilik riskini keltirib chiqarishi mumkin.

Bundan tashqari, tijorat bankining likvidlilikni boshqarish strategiyasi likvidlilik defitsiti va ortiqcha likvidlilikni doimiy monitoring qilish va bartaraf etish choralari ham o'zida ifoda etishi kerak. Chunki tijorat banki majburiyatlaridan tashqari, kreditga layoqatlilik standartlariga javob beradigan istalgan mijozning kreditga bo'lgan talabini ham qondira olishi lozim. Aks holda, bank bu mijozni yo'qotishi, bu bilan bog'liq tarzda kredit xizmatlari bozorida mavqegini pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Demak, likvidlilik defitsitini o'lchashda beqaror passivlarning muddatli aktivlarga aylanishi koeffitsiyentidan foydalanish mumkin. Bunda beqaror passivlardan likvidli aktivlar chegirilib, qolgan

summa beqaror passivlarga bo‘linadi. Odatda bu koeffitsiyentning 20 foizdan oshishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Banklarda likvidlilikni boshqarish strategiyasi samaradorligini ta‘minlashning muhim asosi boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborot bazasining shakllantirilishidir.

Shuningdek, bank aktivlari bo‘yicha ham naqd pullar, vakillik hisob raqamlari qoldig‘i va uning o‘zgarib turishi, ikkilamchi zaxiralar hajmi, yuqori likvidli davlat qimmatli qog‘ozlariga investitsiyalar, kredit va lizinglar, xo‘jalik sub‘ektlarining kreditga bo‘lgan talabi xos mavsumiy jihatlar (ayniqsa Agrobank ATB misolida), bino inshootlar qiymati va qurilishi mo‘ljallanayotgan yangi binolar barchasi bo‘yicha ma‘lumotlar jamlanishi va chuqur tahlil qilinishi talab etiladi.

Bundan tashqari, bank likvidliligini boshqarish strategiyasida xorijiy valyutadagi likvidlilikni ta‘minlash bo‘yicha muhim choralar belgilanishi lozim. Buning boisi shundaki, bankning xorijiy valyutadagi majburiyatlari va aktivlari o‘rtasida muddat va miqdor jihatidan mutanosiblik ta‘minlanmas ekan, so‘mning xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kursining har qanday salbiy o‘zgarishi xorijiy valyutadagi likvidlilikni xarid qilish bo‘yicha sezilarli muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

“Agrobank” ATB misolida ko‘radigan bo‘lsak, u strategiyasida o‘z missiyasi - agrar va agrar sektorning barqaror rivojlanishini ta‘minlash, mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, fermerlik harakatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash doirasida har bir mijozni jumladan, xususiy, korporativ va davlatni moliyaviy ehtiyojlariga bo‘lgan e‘tiborni doimiy tarzda muvofiqlashtirish hamda barcha hududlardagi filiallari orqali yuqori sifatli va ishonchli bank xizmatlarini taqdim etish yo‘li bilan bank tizimi va O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojiga o‘z hissasini qo‘shishga harakat qilmoqda.

“Agrobank” ATBning bosh strategik maqsadi - agrasanoat tarmog‘i korxonalarini qo‘llab quvvatlash bilan birga, keng qamrovli infratuzilma tarmoqlari orqali mijozlarga zamonaviy bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi va barqaror moliyaviy faoliyatni yurituvchi universal bank sifatida rivojlanib borishdan iboratdir. Bankning mazkur maqsadi barqaror moliyaviy siyosatini amalga oshirish, mijoz va resurs bazasini bosqichma-bosqich oshirib borish, halqaro talablar doirasida o‘z faoliyatini tashkil eitish va moliya bozorlarida yuqori samarali operatsiyalarni amalga oshiruvchi, zamonaviy yirik raqobatbardosh pozitsiyani egallash bilan yangi sifat darajalariga erishishdan iboratdir.

Fikrimizcha, har bir tijorat banki o‘z oldiga quygan maqsadlariga hamda mos ravishda keyingi istiqboldagi faoliyatini va faoliyat ko‘lamini kengaytirish uchun asosiy poydevor bo‘lib hisoblangan bank kapitalining yetarli miqdorini hamda likvidlilik ko‘rsatkichlarining me‘yoriy darajasini ta‘minlay oladigan innovatsion boshqarish strategiyasini shakllantirishi lozim.

Umuman olganda, tijorat banklarida likvidlilikni boshqarishning innovatsion strategiyasi barqaror sharoitlarda va inqirozli vaziyatlarda banklarda likvidlilikni boshqarishni ko‘zda tutib, kon‘yunktura o‘zgarishlaridan kelib chiqqan holda, strategiyaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritish mexanizmini ham o‘z ichiga olishi lozim.

Shunday qilib, bankda likvidlilikni boshqarish ssenariylarining quyidagi turlari ajratib ko‘rsatilishi mumkin:

– standart ssenariy: tarixiy ma‘lumotlar statistikasi asosida to‘lovlar oqimini prognozlashga asoslangan;

– “bankda inqiroz” ssenariysi: moliya bozorlarida inqiroz bo‘lmagan sharoitda bank faoliyatidagi salbiy omillar bilan bog‘liq;

– “bozor inqirozi” ssenariysi: moliya bozorlarining inqirozi bilan bog‘liq.

Fikrimizcha, banklarda likvidlilikni ssenariya asosida boshqarishda quyidagi ssenariya parametrlari majmuidan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi:

– muayyan mijozlar va moliyaviy instrumentlar bo‘yicha kirim va chiqim to‘lovlari hajmining o‘zgarishini prognozlash koeffitsiyentlari;

– likvidlilik defitsitini qoplash maqsadida likvidlilikni xarid qilish bo‘yicha bankning banklararo bozordan qarz jalb qilish imkoniyatini ko‘rsatuvchi koeffitsiyentlar;

– kredit va bozor riskini bankning kirim va chiqim xarakteridagi to‘lovlariga ta‘sirini modellashtirish parametrlari;

– mahalliy likvidlilik inqirozlari yuzaga kelishini prognozlash imkonini beruvchi makroiqtisodiy parametrlar.

Likvidlilikni ssenariya asosida boshqarish tizimi har bir ssenariya doirasida yuqoridagi parametrlarni modellashtirish asosida likvidlilikka bo‘lgan talabni baholash imkonini berishi lozim.

Ma‘lumki, bank tizimlarining taraqqiy etishi oqibatida nolikvid hisoblangan ssudalarni sotish va aktivlarni sekyuritizatsiyalash amaliyotlari keng tarqaldi. Bu banklarga likvidlik talabi keskin oshganda nolikvid aktivlarni sekyuritizatsiyalash orqali chetdan likvid mablag‘ jalb qilish imkonini beradi.

Bank likvidlilik riskini keltirib chiqaruvchi yana bir manba – bu bankning foiz stavkasi o‘zgarishiga moyilligidir. Bunda riskni yumshatish va samarali boshqarish maqsadida GEP usulini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tijorat banklarining likvidlik darajasiga tashqi va ichki omillar ta‘sirini qayd etgan holda, bank tashqi omillarning ta‘sirini cheklab qo‘yishi mumkin emas, shuning uchun tijorat bankining faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ichki omillarga ko‘proq e‘tibor qaratish kerak, chunki ularni boshqarish orqali likvidlilikka bo‘lgan salbiy ta‘sirini kamaytirish mumkin.

Yuqoridagi tahlillarga suyanan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- xorijiy banklarning likvidliliigi, balans likvidliliigini ifodalovchi va balans asosida hisoblanuvchi moliyaviy koeffitsiyentlar, shuningdek ma‘lum davrlarda aktivlar va passivlarning oborotini hisobga olgan holda likvid mablag‘larga bo‘lgan potensial ehtiyojni aniqlash asosida o‘lchanadi;

- likvidlilikni tartibga solish bo‘yicha Bazel talablari tijorat banklari joriy likvidliliigini oshirishni taqozo etmoqda.

- tijorat banklarida likvidlilikni boshqarishning innovatsion strategiyasi barqaror sharoitlarda va inqirozli vaziyatlarda banklarda likvidlilikni boshqarishni ko‘zda tutib, kon‘yunktura o‘zgarishlaridan kelib chiqqan holda, strategiyaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritish mexanizmini ham o‘z ichiga olishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev SH.M. O‘zbekiston Respublikaci Prezidentining 2021 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim uctuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlicga Murojaatnomasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli farmoni. 2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish staregiyasi to‘g‘risida //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2020. – № 6 (766). – 32-b
3. Abdullaeva SH.Z. Bank ishi. Darslik. – Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2020 yil. 578 b.
4. Abdullaeva SH.Z. Qoraliyev T.M. Ortiqov U.D. “Bank resurslari va ularni boshqarish”.- Monografiya.-T.: “IQTISOD-MOLIYA”.-2009. 116 b.

